

## OLIV TA'LIMDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AMALIY O'QUV VA STAJIROFKALARNING AHAMIYATI

Kamola Sayfutdin qizi Fayzullayeva

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası assistenti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-2575-7080

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14722666>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lim jarayonida talabalarda innovatsion yondashuv asosida kasbiy kompetentligini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari haqida fikrlar va ushbu yo'nalishdagi turli xil farmonlar haqida yozilgan. Maqolaning asosiy mazmun mohiyati oliy talim jarayonida kasbiy yondashuvlar bo'ladi va ular haqida misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** jarayonida talabalarda innovatsion, Ta'lim to'g'risida, milliy dastur.

**Kirish qismi:** O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim siyosatining asosiy mohiyati barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim tizimining uzluksiz rivojlanishini kafolatlovchi asosiy hujjatlardir. Bu hujjatlarda ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy tamoyillari, pedagogik jarayonning uzviyligi va tizimlilikka erishish yo'llari belgilangan. Mazkur yondashuv nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qiladi.

Malakali pedagog mutaxassislarni tarbiyalashda pedagogika oliy ta'lim muassasalari alohida o'rin tutadi. Jumladan, hozirgi kunda akademik litsey va o'rta maxsus, kasb-xunar kollejlari pedagog mutaxassislarni yetishtirib berishda Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Aynan shu oliy ta'lim muassasasida bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini mutaxassislik fanlari asoslari bilan tanishtirish, ularning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash, shuningdek bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida kasbiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

**Asosiy qism:** So'nggi yillarda aynan kasb ta'limi mazmunini takomillashtirishni ta'minlovchi Davlat ta'lim standartlari ishlab chikildi. Bundan tashqari kasb ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalari, takomillashgan ukuv dasturlari, darsliklar xamda kullanmalarning yaratilishiga e'tibor karatildi.

Kasb ta'lim o'qituvchisini tayyorlash o'quv rejasiga kiritilgan fanlarning tug'ri tanlanishi, ularning o'quv material hajmi, o'quv material mazmuni, o'tish vaqti, nazariy o'quv material hajmi, amaliy ta'lim hajmi va boshqalarni ilmiy asosda tashkil qilish, davr talabiga javob beradigan mutaxassis darajasidagi kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashni ta'minlaydi.

Xozirgi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasalari kasb ta'limi yo'nalishlarini bitirganlar kasb-xunar kollejlari va akademik litseylarda muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Kasb ta'limi ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash masalalari bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu ishlarda kasb ta'limi o'qituvchisi tayyorlash muammosining turli tomon va qirralari yoritilgan bo'lib, quyida biz ularning ayrimlarini taxlil qilmoqchimiz.

V.D.Simonenkoning ishlarida mexnat ta'limi mashg'ulotlari, IV-VIII sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishining mazmuni, shakllari usuli hakida ma'lumotlar berilgan bo'lib,

texnik, qishlok xo'jalik va maishiy xizmat ko'rsatish mexnati jarayonida shu soxa vakillari bilan tanishtirish, ularning faoliyati moxiyati, mazmuni, ishlab chiqaradigan maxsulotlari bo'yicha kasbga yo'naltirish mashg'ulotlarining taxminiy rejalari keltirilgan.

U.N.Nishonaliyev pedagogika oliy ta'lim muassasasi amaliyotini, chuqur xar tomonlama taxlil etib, kuyidagi xulosalarga kelgan, amaliyotda qo'llanilayotgan o'quv rejalari maxsus kurslar va maxsus seminarlar kiritish zarur, chunki ular bo'lajak mexnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini shaksiz oshirish imkonini berishini ta'kidlab o'tgan.

Bo'lajak mexnat va kasb ta'limi ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishda o'quv-uslubiy majmualarning rolini A.R.Xodjaboyev o'zining doktorlik dissertatsiyasida xamda undan keyingi ishlarida mukammal tadqiq etgan.

N.A.Muslimov kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishda motivatsion sifatlar, intellektual salohiyat, xissiy, irodaviy sifatlar, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish va o'z- o'zini boshqarish layoqatlarini tarkib toptirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim - kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko'taruvchi yaxlit tizimning tarkibiy qismi, oliy ta'lim muassasalarida kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash jarayonining pedagogik shart-sharoitlari xamda vositalarini aniqlashda asos bo'ladi deb qayd etgan.

A.I.Avazboyev o'quv predmetlarini mazmunini integratsiyalash asosida mexnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Sh.S.Sharipov talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik sharoitini mexnat va kasb ta'limi fakultetlari misolida keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib zarur xulosa va tavsiyalar keltirgan.

O.A.Kuysinov kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

D.U.Ergashev tomonidan xozirgi fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish tajribalarini amaliyotga jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgan, jamiyat va tabiatda yo'z berayotgan o'zgarishlar, milliy tiklanish va rivojlanish, bozor munosabatlari va turli mulkchilik sharoitida ishlay oladigan, dunyoqarashi har tomonlama keng, ijodkor, mexnat va kasb ta'limi o'qituvchilashni tayyorlash muammosi tadqiq etilgan.

**Xulosa qismi:** Yuqorida ko'rsatilgan va shunga o'xshash bir qator ishlarning taxlili pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash tajribasini umumlashtirib quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash ishini takomillashtirishni talabgorlarni tanlab olishdan boshlash, ularning qiziqishi, moyilligi, xissiyoti. kasbiy yo'nalganligini xisobga olishga imkon beruvchi mutaxassislik fanlaridan kirish imtixonlarini kiritish;

2. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash qamrovini kengaytirish, ya'ni xalq xo'jaligining muhim tarmoqlariga mosligini ta'minlash;

3. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda ularning qiziqishini qolaversa jinsini hisobga olgan xolda tabaqalashtirish. Bu muammo ayniqsa kasb ta'limi o'qituvchilarini turli yo'nalishlar bo'yicha kasbiy-pedagogik tayyorgarligida muxim axamiyat kasb etadi.

4. O'quv reja va dasturlarini fan-texnika yutuqlari xamda ilg'or, istiqbolli, ishlab chiqarish texnologiyalari asosida takomillashtirish;

5. Ta'lim-tarbiya ishida talabalarni faollashtiruvchi ilg'or pedagogik texnologiyalardan

keng ko‘lamda foydalanish;

6. Talabalarining mustaqil ijodiy qobiliyatlarini tarkib topishini ta‘minlovchi boshqa elementlari bilan uyg‘un xolda tashkil etish;

7. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda axborot texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi integratsiyasini ta‘minlash;

8. Mazmunan yaqin, bir-birini to‘ldirib, kengaytirib va chuqurlashtirib boruvchi o‘quv predmetlarini yaxlit fan sifatida integratsiyalab o‘rganish yo‘li bilan takrorlanishlarga chek qo‘yish, bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarida xar tomonlama mukammal bilim xamda kasbiy ish-xarakat usullarini shakllantirish Uzluksiz ta‘lim tiziminining oliy ta‘lim bosqichini tashkiliy va mazmun jixatidan qayta ko‘rish «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi lozim. Bunday qayta qurish ta‘lim mazmunini integratsiyalash, ilm-fan uslublarining oliy ta‘lim shart-sharoitlariga moslashtirish yo‘li bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

### References:

1. Mardonov R. THE ROLE AND PLACE OF UNIVERSITIES IN THE" KNOWLEDGE SOCIETY" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 9. – S. 317-325.
2. Mardonov R. Philosophy of education in modern conditions of society development //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 10. – S. 103-114.
3. Mardonov R. HUMANIZATION AND HUMANITARIZATION OF HIGHER EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE INFORMATION SOCIETY //Conferencea. – 2021. – S. 21-28.
4. Mardonov R. Eastern Philosophy Of Education And Educational Policy: Features And Priorities //The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN–2689-100x) Published: February. – 2021. – T. 28. – S. 288-294.
5. Mardonov R. FEATURES OF EDUCATIONAL SERVICES IN MODERN CONDITIONS //Archive of Conferences. – 2021. – T. 22. – №. 1. – S. 100-103.
6. Zilola, A., Umirahon, T., & Malika, K. (2019). The role of media technologies in Developing intercultural competence of Student’s. *Бюллетень науки и практики*, 5(4), 462-465.
7. Abidova, Z. K. (2023). Translation Problems of Verbs of Thought in Different System Languages. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(2), 1-5.